

**FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI STATISTIK
BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH****Nurxonov Nurkomil Qahromon o'g'li***Kadrlar malakasini oshirish va statistic tadqiqotlar instituti**“Makroiqtisodiy statistika va milliy hisoblar” kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada respublikamiz va uning hududlarida fermer xo'jaliklarida oziq modda hisobida qishloq xo'jaligi ekinlariga solingan mineral o'g'itlarning o'zgarishi, ularning iqtisodiy-statistik tahlili bayon etilgan.*

Abstract: *this article describes the change of mineral fertilizers added to agricultural crops at the expense of nutrients in the farms of our republic and its regions, their economic and statistical analysis.*

Аннотация: *в данной статье рассмотрена смена вносимых под сельскохозяйственные культуры минеральных удобрений за счет элементов питания в хозяйствах нашей республики и ее регионов, их экономико-статистический анализ.*

Tayanch iboralar: *qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsuloti, dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi, mineral o'g'itlar, kim fermer xo'jaligi, mineral o'g'itlar, kimyo sanoati, sug'oriladigan yerlar, iqtisodiy-statistik tahlil, agrar islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.*

Key words: *agriculture, agricultural products, farming, farm, mineral fertilizers, who farm, mineral fertilizers, chemical industry, irrigated lands, economic-statistical analysis, agrarian reforms, socio-economic processes.*

Ключевые слова: *сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, фермерское хозяйство, ферма, минеральные удобрения, кто хозяйство, минеральные удобрения, химическая промышленность, орошаемые земли, экономико-статистический анализ, аграрные реформы, социально-экономические процессы.*

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan keng miqyosli iqtisodiy islohotlar agrar sohada tub o'zgarishlarga olib keldi. Agrar ishlab chiqarishni tashkil etishning o'zbek xalqining mentalitetiga mos va jahonning ilg'or tajribasiga asoslangan shakllari –fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Buning natijasida o'z navbatida qayta ishlovchi tarmoqlarni qishloq xo'jaligi xom-ashyosi bilan, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'la ta'minlashga asos yaratildi. Iqtisodiyotning agrar sohasi eksport borasida ham yetakchi sohalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklarini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash xo'jalik faoliyati tuzilishini tubdan o'zgartirib va bozor iqtisodiyotiga o'ta borib, qisqa davr mobaynida iqtisodiyotning barqarorligiga erishishiga sabab bo'lmoqda. Bu sanoatda ilg'or texnologiyalarni joriy etishga, xizmat ko'rsatish sohasining sezilarli O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklarini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash xo'jalik faoliyati tuzilishini tubdan o'zgartirib va bozor iqtisodiyotiga o'ta borib, qisqa davr mobaynida iqtisodiyotning barqarorligiga erishishiga sabab bo'lmoqda. Bu sanoatda ilg'or texnologiyalarni joriy etishga,

xizmat ko'rsatish sohasining sezilarli rivojlanishiga hamda qishloq xo'jaligining o'sishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarida 100 % oziq modda hisobida qishloq ho'jaligi ekinlariga solingan mineral o'g'itlarning o'zgarishi

(tonna)		Yillar		2018 yil 2017 yilga nisbatan	
Ko'rsatkichlar		2017	2018	(+;-)	%
2016					
O'zbekiston Respublikasi	980 433	958 402	876 382	-104051	89,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	32 950	35 023	30 216	-2734	91,7
Andijon	72 725	73 462	74 015	1290	101,8
Buxoro	80 550	79 746	96 287	15737	119,5
Jizzax	149 048	132 950	83 383	-65665	55,9
Qashqadaryo	93 980	95 465	122 862	28882	130,7
Navoiy	29 141	28 024	30 033	892	103,1
Namangan	87 351	84 236	47 599	-39752	54,5
Samarqand	76 378	76 835	49 349	-27029	64,6
Surxondaryo	64 424	63 597	59 817	-4607	92,8
Sirdaryo	70 018	69 149	67 917	-2101	97,0
Toshkent	82 646	86 053	43 407	-39239	52,5
Farg'ona	79 646	75 426	90 807	11161	114
Xorazm	61 576	58 436	80 691	19115	131

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2016-2018 yillar bo'yicha ma'lumotlar asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018 yilda 2016 yilga nisbatan O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarida 100 % oziq modda hisobida qishloq ho'jaligi ekinlariga solingan mineral o'g'itlar hajmi 104051 tonnaga, 10,6 foizga kamaygan. Respublikamizning Xorazm viloyatida 19115 tonnaga, ya'ni 31 foizga oshgan, aksincha, Jizzax viloyatida 65665 tonnaga, ya'ni 44,1 foizga kamaygan. (1- jadval)

Yuqoridagi 1.-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi asosiy qishloq xo'jalik ekinlariga solinayotgan mineral o'g'itlarning miqdorini yil kamayib borilayotganligini ko'rsatmoqda. Chunki tuproq unumdorligining biroz pasayganligi va yuqori hosil olish uchun mineral o'g'itlar sarfi ko'paymoqda. Shuning uchun kelajakda tuproqning unumdorligini oshirish maqsadida dastavval agrotexnika tadbirlarini amalga oshirib, mineral o'g'itlarni miqdorini har bir ekin maydoniga me'yor darajasida hamda ular o'rtasidagi munosabat mutanosiblikni saqlagan holda solinishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Eng avvalo Respublikaning suv resurslari davlat mulki, ya'ni unummilliy boylik hisoblanadi. Shuning uchun barcha suvni milliy boylik tarkibida hisoblanishi zarur. Yer osti ma'dan boyliklari zahirasining qiymati alohida aniqlanishi munosabati bilan yerning unumdor qatlami hisoblangan tuproq qismini qiymatini aniqlash zarur. Chunki u ham tabiiy qonunlar

ta'siri natijasida barpo etilgan. Unga nisbatan jamiyatning talabi mavjud. Bunday holni mavjudligi uni qiymatini aniqlashni ob'ektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun davlatning yer resurslarini milliy boylik tarkibida baholashda shu yerlarning (tuproqning) tabiiy unumdorlik darajasini mezon qilib olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ya'ni bir birlikdagi tuproqning tabiiy unumdorligi. Bu ko'rsatkich miqdor va qiymat ko'rinishida aniqlanishi mumkin. Masalan, 1 ga yaylovning tabiiy unumdorligi necha sentner xashak yoki ozuqa birligini berishi mumkin. Xuddi shuningdek 1 ga paxta ekiladigan maydonning tabiiy unumdorligi qancha paxta xom ashyosini yetishtirib berishligini aniqlash lozim. Bu ko'rsatkich Respublika paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining ma'lumot-lariga asoslangan holda 10-12 s tashkil etadi. Tuproqning tabiiy unumdorligi ball bonitet shaklida ham bo'lishi mumkin. Bu raqamlar tuproqning tabiiy unumdorligini isbotlaydi. Uning qiymatini aniqlash uchun qaysi davrga (muddatga) aniqlanishi lozim bo'lsa shu davrdagi haqiqiy baholardan foydalanish lozim.

O'zbekiston Respublika fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanishda ba'zi hollarda kamchilik va muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish mavsumida tumanlarda fermer xo'jaliklari tomonidan limitga nisbatan ortiqcha suv sarflanmoqda. Buning oldini olish uchun albatta suvdan foydalanishda bozor prinsiplarini joriy qilish, sug'orishga berilgan suvdan oqilona va samarali foydalanilganligi, sug'orishga berilgan suvning oqilona taqsimoti, hisob-kitobi va hisobotini yuritish, yetkazib berilgan suv uchun to'lovlarni takomillashtirish, sug'orishga berilgan suvdan iqtisod qilib, oqilona foydalanilganligi uchun rag'batlantirish, yetkazib berilgan suvga to'lanadigan to'lovlarda suv iste'molchilariga beriladigan imtiyoz chora-tadbirlarini amaliyotga joriy etish zarur.

Kelajakda sug'oriladigan yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini barqaror ravishda yuksaltirish uchun barcha ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanishga e'tibor bergan holda ekinlarni maqsadga muvofiq tarkibini ta'minlashga hamda ularni samarali joylashtirishga erishish lozim.

Kelajakda sug'oriladigan yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini barqaror ravishda yuksaltirish uchun barcha ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanishga e'tibor bergan holda ekinlarni maqsadga muvofiq tarkibini ta'minlashga hamda ularni samarali joylashtirishga erishish lozim.

Xulosa qilib aytganda,

1. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biri bo'lgan kimyo sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy ixtisoslashuvi xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyo sanoati ishlab chiqarish majmuini rivojlantirish zarur;

2. Bugungi kunda mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni darajasi va samaradorligini o'sishini to'xtovsiz ta'minlab turish zarur. Chunki mineral o'g'itlar ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo'lishi: bu birinchidan, respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lamini kengayishiga, ikkinchidan, aholini turmush sharoitini yaxshilanishiga, uchinchidan, respublikaning mineral o'g'itlar bo'yicha eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

3. Bozor raqobatbardoshligi sharoitida mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va yuksaltirish uchun, bizningcha, o'z-o'zining xarajatlarini ta'minlashni zarur. Bu zarur moddiy - texnik resurslar importi uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yaratish hisobiga ehtiyojlarni xorijiy valyutada qoplash demakdir. Eksport-import

operatsiyalarining hajmi va vaqti bo'yicha balanslashtirilishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini va respublika hududiga mineral o'g'itlar, boshqa kimyoviy mahsulotlar yetkazib berish hajmini oshirish uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

4. O'zbekistonda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlardan yangi exnologiyalarni olib kelish, bozor va xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish zarur. Shuningdek, xorijiy sheriklar bilan birga ikki tomonlama manfaatli qo'shma korxonalar ochih va ulardan samarali foydalanish;

5. Ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ta'minlanish darajasining pastligi, import va fond ulushining yuqoriligi, import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirish, tasarrufdagi moddiy – xom ashyo bazasi va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, mineral o'g'itlar eksport salohiyatini oshirish bilan investitsion muammolarni yuzaga keltiradi. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va eksport salohiyatini oshirish vazifalari amaldagi quvvatlarni saqlab qolish va rekonstruksiya qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. So'nggi yillarda asosiy fondlarni yangilashga kapital ajratilishi kamaydi. Natijada, asosiy fondlar aktiv qismining eskirish tarmoqning yetakchi korxonalarida ekstremal darajaga yetmoqda.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Mirziyoev. Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent «O'zbekiston» NMIU,2018.-592 b.

2.Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: «FAN», 2019 yil. - 670 b.

3.Soatov.N.M., Ayubjonov A.H. Amaliy statistika Darslik. T.: IQTISODIYOT-2020

4.Mamatkulov B.X.. Fermer xo'jaliklarinig ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni statistik tahlili // POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 2(35), 2021) . Warsaw. Sp. z o. o. "iScience"., 2021. Part 4 - 396 p.

5.O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. Statistik to'plam. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi, Toshkent, 2020

6.www.stat.uz- (O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi sayti)